



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov – Buxoro davlat universiteti, Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası doktoranti

BUXORO TARIXIY MARKAZIDAGI MEROS OBYEKTLARIDA TURISTIK SIG‘IM IMKONIYATLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro tarixiy markazidagi Chor Minor va Hazrati Imom ansambllari misolida tarixiy meros obyektlarining turistik sig‘im imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda Cifuentes metodologiyasi asosida dala tadqiqotlari orqali fizik sig‘im va haqiqiy sig‘im ko‘rsatkichlari o‘lchangan. Iqlim tuzatish koeffitsientlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari asosida Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarini barqaror boshqarishga doir ilmiy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: turistik sig‘im, fizik sig‘im, haqiqiy sig‘im, meros obyektlarini boshqarish, YUNESKO Jahon merosi, Cifuentes modeli, barqaror turizm.

Kirish. Xalqaro turizm sanoati so‘nggi o‘n yillikda global iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biriga aylandi. 2025-yilda jahon bo‘ylab 1,52 milliard xalqaro sayyoh qayd etildi va bu ko‘rsatkich COVID-19 pandemiyasidan keyingi eng og‘ir inqirozdan to‘liq tiklanishni bildiradi [1]. Mazkur ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 4%ga, ya‘ni 60 million sayyohga ko‘proqni tashkil etdi [1]. Moliyaviy jihatdan ham rekord qayd etildi. Turizm eksport daromadlari, jumladan yo‘lovchi transporti hisobga olinganda, 2024-yilda 1,9 trillion AQSH dollariga yetdi. Bu pandemiyadan avvalgi davrdagidan taxminan 3 % yuqori [2].

O‘zbekiston ham ushbu global o‘shish jarayoniga tobora faolroq qo‘shilmoqda. 2025-yilda mamlakatga turizm maqsadida kelgan xorijiy fuqarolar soni 11,7 millionga yetdi. Bu 2024-yildagi 8,2 million ko‘rsatkichidan 3,5 millionga ko‘p [3]. Turizm xizmatlari eksporti 2024-yildagi 3,52 milliard dollardan 2025-yilda 4,8 milliard dollarga oshdi, “O‘zbekiston-2030” strategiyasida 20 million xorijiy sayyohni qabul qilish va 6 milliard dollar turizm eksportiga erishish maqsad qilib belgilangan [4]. Mazkur o‘shishning asosiy dvigateli mamlakatning boy madaniy-tarixiy merosi bo‘lib, sayyohlarning katta qismi Samarqand, Buxoro va Xivaga Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab joylashgan tarixiy shaharlarga tashrif buyurmoqda.

Buxoro viloyati O‘zbekiston turizm tizimida alohida o‘rin egallaydi. Ipak yo‘lida joylashgan Buxoro shahrining tarixi ikki ming yildan oshiq bo‘lib, u O‘rta Osiyodagi eng to‘liq saqlanib qolgan o‘rta asr shahri sifatida tan olingan [5]. YUNESKO ning ikkinchi mezon Buxoroning O‘rta Osiyoning keng hududidagi shaharlar rejalashtirishiga chuqur ta‘sirini, to‘rtinchi mezon esa shaharning hozirgi kunda ham asosan saqlanib qolgan o‘rta asr shahar to‘qimasi bilan O‘rta Osiyo shahrining eng to‘liq va buzilmagan namunasi ekanini tasdiqlaydi [6]. 1993-yildan YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatida turgan Buxoro tarixiy markazida 260 dan ortiq tarixiy me‘moriy obida mavjud bo‘lib, ular har yili yuz minglab mahalliy va xorijiy sayyohlarni o‘ziga jalb etmoqda [5]. Xalqaro turizm nuqtai nazaridan meros shahri sifatida Buxoro aylanma turizm modellarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi, meros obyektlaridan foydalanish madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan uzluksiz foyda keltiradi [7].

Biroq sayyohlik oqimining tez sur‘atda o‘shishi muhim muammoni ham yuzaga keltirmoqda. Srivastava ta‘kidlaganidek, sayyohlik faoliyatining me‘yoridan oshib ketishi bu “haddan tashqari sayyohlik sayyohlikning o‘zini yo‘q qiladi” degan hodisaga olib keladi [8]. Turistlar sonining nazorat qilinmagan o‘shishi bir tomondan iqtisodiy foyda keltirsa, ikkinchi tomondan me‘moriy obidalarga shikast yetkazish, mahalliy aholining hayot sifatini pasaytirish va sayyohlik tajribasini yomonlashtirish xavflarini tug‘diradi. Aynan shu sababli Turistik sig‘im (Tourism Carrying Capacity - TCC) tushunchasi - ya‘ni obyektning qancha turistni o‘zining barqarorligi saqlanib qolgan holda qabul qila olishini ilmiy usulda aniqlash jarayoni bugungi kunda meros turizmi boshqaruvining markaziy vositasiga aylangan [9; 10]. Ushbu tadqiqot Buxoro tarixiy markazidagi ikki muhim tarixiy obyekt Chor Minor ansambli va Hazrati Imom qabri va ansambli misolida Fizik sig‘im (Physical Carrying Capacity - PCC) va Haqiqiy sig‘im (Real Carrying Capacity - RCC) ko‘rsatkichlarini dala tadqiqotlari orqali o‘lchashni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari mazkur obyektlar uchun ilmiy asoslangan sayyoh oqimini boshqarish qarorlarini qabul qilishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Turistik sig‘im (Tourism Carrying Capacity –

TCC) tushunchasi dastlab ekologiya va tabiatni muhofaza qilish sohasida qoʻllanilgan boʻlsa-da, keyinchalik sayyohlik fanida mustaqil metodologik yoʻnalishga aylandi. Srivastava taʼkidlashicha, TCC oʻz mohiyatiga koʻra “maʼlum bir hududda sayyohlik faoliyatining salbiy oqibatlarini yuzaga keltirmasdan qabul qilish mumkin boʻlgan ziyoratchilarning maksimal soni”ni anglatadi [8]. Ushbu taʼrif vaqt oʻtishi bilan kengayib ekologik, ijtimoiy va boshqaruv chegaralarini ham oʻz ichiga oldi [10].

Metodologik jihatdan bugungi kunda eng keng tarqalgan yondashuv Cifuentes tomonidan IUCN (Tabiatni Muhofaza qilish Xalqaro Ittifoqi) uchun ishlab chiqilgan uch bosqichli model hisoblanadi [9]. Ushbu model Fizik sigʻim (PCC), Haqiqiy sigʻim (RCC) va Samarali sigʻim (ECC) bosqichlarini oʻz ichiga olib, har bir keyingi bosqich oldingi bosqichning tuzatish koeffitsientlari orqali hisoblangan qiymatidir. Aylanish koeffitsienti tushunchasini metodologiyaga birinchi boʻlib Boullon kiritgan boʻlib, u “kunlik ochiq soatlar / oʻrtacha tashrif davomiyligi” formulasini taklif qilgan [14]. Mazkur formula hozirgi kunda ham barcha TCC tadqiqotlarining asosiy hisoblash vositasi boʻlib qolmoqda [9; 13].

Xalqaro miqyosda TCC metodologiyasini madaniy meros saytlarida qoʻllash boʻyicha tadqiqotlar soni soʻnggi oʻn yilliklarda keskin oshdi. Magabli va Al-Shorman Iordaniyadagi Petra YUNESKO meros saytida fizik sigʻimni hisoblash boʻyicha muhim tadqiqot oʻtkazdilar [12]. Boullon modelidan foydalangan holda hisoblangan natijalarga koʻra, Petra uchun oylik sigʻim 16 200 ziyoratchi tashkil etgan, biroq shu bilan birga ushbu koʻrsatkich yanvar oyidan tashqari barcha fasllar davomida oshib ketgani aniqlangan [12]. Tadqiqot tarixiy obyektlarda sayyohlar oqimini mavsumiy taqsimlashning zarurligini koʻrsatdi.

Diniy va ziyoratgoh maqomidagi meros saytlari uchun maxsus TCC hisoblash metodologiyasini Jangra va Kaushik (2017) Hindistondagi Kurukshetra shahridagi Braham Sarovar saytida sinab koʻrdilar [13]. Ular IUCN formulasi asosida beshta koʻrsatkich - maydon, avtoturar joy, hojatxona, ichimlik suvi va yoʻlak - boʻyicha alohida PCC hisob-kitoblarini amalga oshirib, saytning kunlik maksimal quvvati 567534 ziyoratchi ekanligini aniqladilar [13]. Ushbu tadqiqotning metodologik hissasi shundaki, turli funksional zonalar uchun bir kishiga moʻljallangan maydon meʼyorlari (1 m² dan 10 m² gacha) tabaqalashtirilgan holda qoʻllanilgan.

Erdogan Turkiyaning Amasya shahridagi koʻp xususiyatli YUNESKO meros saytida Cifuentes modelini zamonaviy meros kontekstiga muvaffaqiyatli moslashtirib, PCC, RCC, ECC va ijtimoiy sigʻim (SCC) ni birgalikda hisobladi [11]. Tadqiqot shuni koʻrsatdiki, hatto umumiy sigʻim yetarli boʻlgan hollarda ham alohida zonalarining sigʻimi oshib ketishi mumkin - bu holat meʼmoriy buzilishlarga, mahalliy aholining noroziligiga va sayyohlik tajribasining yomonlashishiga olib keladi [11]. Bundan tashqari, Makhadmeh va boshq. Iordaniya dekapolis shaharlaridan biri - Jerash (Gerasa) arxeologik saytida GAT modellashtirish yordamida sigʻimni hisoblash metodologiyasini ishlab chiqdilar va turistlar oqimining meʼmoriy yodgorliklar xavfsizligini jiddiy xavf ostiga qoʻyayotganini aniqladilar [18].

Turistik sigʻim muammosi faqat miqdoriy koʻrsatkich bilan cheklanmaydi. U sayyohlik manzilining hayot sikli (TALC) bilan chambarchas bogʻliq. Butler taklif qilgan TALC modeli kashfiyot, jalb etish, rivojlanish, konsolidatsiya, turgʻunlik va tanazzul bosqichlari sayyohlik sigʻimining oshib ketishi qanday qilib manzilning oʻz-oʻzini yoʻq qilishiga olib kelishi mumkinligini tushuntiradi [15]. Doxey esa mahalliy aholining sayyohlarga munosabatini ifodalovchi “Bezovtalanish indeksi” (Irridex) modelini ishlab chiqib, sigʻimdan oshib ketish ijtimoiy munosabatlarga ham salbiy taʼsir qilishini koʻrsatdi [17]. YUNESKO/ICCROM/ICOMOS/IUCN tomonidan ishlab chiqilgan “Jahon merosi kontekstida taʼsir baholash boʻyicha qoʻllanma” Buxoro kabi YUNESKO obyektlarida sigʻim baholashning huquqiy-metodologik asosini belgilaydi [16]. Ushbu hujjat sayt boshqaruvchilari uchun sigʻim hisoblashni majburiy amaliyotga aylantirish zarurligini taʼkidlaydi.

Oʻzbekiston, xususan Buxoro shahridagi tarixiy meros obyektlarida TCC ni oʻlchashga qaratilgan maxsus tadqiqotlar hali yetarli darajada emas. Mavjud ishlar asosan meros turizmining umumiy rivojlanish muammolari yoki GAT texnologiyalari yordamida marshrut optimallashtirish bilan chegaralanadi. Kilichov va boshqalar Buxorodagi meros turizmini rivojlantirishda GAT texnologiyalaridan foydalanib, sayyohlik marshrutlarini optimallashtirish modelini taklif qildilar, biroq konkret sigʻim koʻrsatkichlarini oʻlchamadilar [7]. Khamidov va Khayrullaeva esa Buxoro

viloyatida barqaror turizm rivojlantirish masalasini ko‘rib chiqib, turistik infratuzilmaning yetarli emasligi va obyektlarning haddan ortiq zo‘riqishi muammolarini belgiladilar [6].

Mazkur adabiyotlar sharhidan kelib chiqadigan xulosa shundan iboratki, Cifuentes metodologiyasi xalqaro miqyosda meros saytlarida samarali qo‘llanilayotgan bo‘lsa-da [9; 11; 12; 13], Buxoro tarixiy markazidagi alohida obyektlar uchun dala tadqiqotlariga asoslangan miqdoriy sig‘im o‘lchovlari hali amalga oshirilmagan. Ushbu tadqiqot aynan mazkur bo‘shliqni to‘ldirish maqsadini ko‘zlaydi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda bir-birini to‘ldiruvchi 5 ilmiy metoddan foydalanildi. Kuzatuv metodi doirasida har bir obyektida kamida 50 ziyoratchi bevosita kuzatilib, kirish va chiqish vaqtlari qayd etildi hamda o‘rtacha tashrif davomiyligi aniqlandi. O‘lchov metodi asosida obyekt maydonlari GPS asboblari yordamida joyida o‘lchandi va kadastr hujjatlari bilan taqqoslandi. Hujjatlar tahlili metodi orqali kadastr ma‘lumotlari, obyekt ma‘muriyatidan olingan texnik hujjatlar va O‘zgidrometning ko‘p yillik iqlim statistikasi o‘rganildi. Miqdoriy tahlil metodi yordamida yig‘ilgan dala ma‘lumotlari Cifuentes formulalari asosida matematik hisob-kitob orqali qayta ishlanib, PCC va RCC ko‘rsatkichlari bosqichma-bosqich aniqlandi. Oxirgi bosqichda, qiyosiy tahlil metodi qo‘llanildi. Olingan natijalar xalqaro meros saytlarida o‘tkazilgan o‘xshash tadqiqotlar Erdo‘gan, Magablihi va Al-Shorman, Jangra va Kaushiknatijalari bilan solishtirilib baholandi [11; 12; 13].

Tahlil va natijalar. Ma‘lumotlar ikki yo‘l bilan yig‘ildi: 1) GPS o‘lchov asboblari va kadastr hujjatlari yordamida obyekt maydonlari aniqlandi; 2) har bir obyektida kamida 50 ziyoratchi kuzatildi, kirish va chiqish vaqtlari qayd etilib, o‘rtacha tashrif davomiyligi hisoblandi.

Fizik sig‘im (PCC) formulasi

Fizik sig‘im quyidagi formula asosida hisoblandi [9; 14]:

$$PCC = S \times U$$

Bu yerda:

$$S = \frac{E}{a_{och}} + \frac{G}{a_{yop}} + \frac{H}{a_{tor}} + \frac{I}{a_{min}} - \frac{K}{a_{och}} - \frac{L}{a_{och}}$$

$$U = \frac{\text{Ochiq soatlar}}{\text{Tashrif vaqti (daq)/60}}$$

Belgilar izohi:

Belgi	Ma‘no	Bir kishiga maydon (a)
E	Ochiq maydon / hovli	3.0 m ²
G	Yopiq / ichki zal	2.0 m ²
H	Tor yo‘lak (< 2 m)	1.2 m ²
I	Minora / tor ko‘tarilish	1.1 m ²
K	Hovuz / suv - ayiriladi	3.0 m ²
L	Bog‘ / gulzor - ayiriladi	3.0 m ²

a qiymatlari Jangra va Kaushik va Cifuentes tavsiyalariga asoslangan [9; 13].

Haqiqiy sig‘im (RCC) formulasi

Haqiqiy sig‘im PCC ga iqlim va savdo zonasi tuzatish koeffitsientlari tatbiq etilishi orqali hisoblandi [9; 11]:

$$RCC = PCC \times \left(1 - \frac{M + N + O}{\Sigma A}\right) \times \left(1 - \frac{d_{issiq}}{365}\right) \times \left(1 - \frac{d_{sovuq}}{365}\right)$$

Bu yerda M - savdo rastasi, N - muzey eksponati, O - xizmat texnik zonasi maydoni; d_{issiq} - yiliga 35°C dan yuqori kunlar soni (82 kun), d_{sovuq} - yiliga 0°C dan past kunlar soni (30 kun) O‘zgidromet ma‘lumotlari asosida [9].

Natijada umumiy iqlim koeffitsienti = 71.16% qabul qilindi, ya‘ni PCC ning 28.84 %i iqlim cheklovlari sababli kamaytirildi.

Yillik va mavsumiy sig‘im

Kunlik ko‘rsatkichlardan yillik va mavsumiy sig‘imlar quyidagicha hisoblandi:

$$PCC_{yillik} = PCC \times 365$$

$$RCC_{yillik} = RCC \times 365$$

$$PCC_{mavsum} = PCC \times 253$$

$$RCC_{mavsum} = RCC \times 253$$

Bu yerda 253 kun yilning issiq va sovuq kunlardan ozod bo‘lgan faol mavsumi.
Chor Minor Ansambli fizik sig‘imi (PCC)

1-jadval

Chor Minor ansambli - maydon tarkibi

Zona turi	Maydon (m ²)	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	2 408	qo‘shiladi
Yopiq / ichki zal (G)	149	qo‘shiladi
Hovuz / suv (K)	61	ayiriladi
Bog‘ / gulzor (L)	124	ayiriladi
Savdo rastasi (M)	70	RCC tuzatishi
Muzey eksponati (N)	5	RCC tuzatishi
Xizmat texnik zona (O)	35	RCC tuzatishi

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Chor Minor ansamblining umumiy hisoblash maydonida ochiq hovli (2408 m²) eng katta ulushni tashkil etadi. Hovuz (61 m²) va bog‘-guzor (124 m²) zonalarini ziyoratchilar tomonidan foydalanilmaydigan hududlar sifatida PCC hisoblashdan chiqarib tashlangan. Savdo rastasi, muzey eksponati va xizmat texnik zonasi (jami 110 m²) esa PCC ga ta’sir qilmagan holda faqat RCC tuzatishida inobatga olingan.

2-jadval.

Chor Minor ansambli - sig‘im natijalari

Ko‘rsatkich	Qiymat
Sig‘im summasi	815.5
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsienti	18
Iqlim koeffitsienti	71.16%
Fizik sig‘im - PCC	14 679 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig‘im - RCC	9 741 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	5 357 835 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	3 555 465 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	3 713 787 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	2 464 473 ziyoratchi/mavsum

2-jadval natijalariga ko‘ra, Chor Minor ansambli kuniga maksimal 14679 ziyoratchi qabul qila olish imkoniyatiga ega. Biroq iqlim cheklovlari (yiliga 82 issiq va 30 sovuq kun) hamda savdo zonalarini tuzatishi hisobga olinganida haqiqiy sig‘im 9741 ziyoratchi/kunga tushadi. Bu PCC ning 66.4 %ini tashkil etib, obyektning faol faoliyat yurita oladigan mavsumi 253 kun ekanligini ko‘rsatadi.

Hazrati Imom Qabri va Ansambli fizik sig‘im (PCC)

3-jadval.

Hazrati Imom ansambli - maydon tarkibi

Zona turi	Maydon (m ²)	Amal
Ochiq maydon / hovli (E)	559.34	qo‘shiladi
Bog‘ / gulzor (L)	132.54	ayiriladi

3-jadvalda Hazrati Imom ansamblining foydalanish maydoni asosan ochiq hovli (559.34 m²) dan iboratligini ko‘rish mumkin. Bog‘-guzor zonasi (132.54 m²) kirishi cheklangan yashil maydon sifatida PCC hisoblashdan ayirilgan. Chor Minordan farqli ravishda, ushbu obyektida savdo, muzey yoki xizmat texnik zonalarini qayd etilmagan, bu esa uning ziyoratgoh xarakterini tasdiqlaydi.

4-jadval.

Hazrati Imom ansambli - sig'im natijalari	
Ko'rsatkich	Qiymat
Sig'im summasi	142.3
Ochiq soat / Tashrif vaqti	9 soat / 30 daqiqa
Aylanish koeffitsienti	18
Iqlim koeffitsienti	71.16%
Savdo tuzatishi	0%
Fizik sig'im - PCC	2 561 ziyoratchi/kun
Haqiqiy sig'im - RCC	1 822 ziyoratchi/kun
Yillik PCC	934 765 ziyoratchi/yil
Yillik RCC	665 030 ziyoratchi/yil
Mavsumiy PCC (253 kun)	647 933 ziyoratchi/mavsum
Mavsumiy RCC (253 kun)	460 966 ziyoratchi/mavsum

4-jadval ko'rsatkichlari Hazrati Imom ansamblining nisbatan cheklangan qabul qilish imkoniyatiga ega ekanligini namoyon etadi. Kunlik PCC 2561 ziyoratchi bo'lib, savdo tuzatishi nolga teng bo'lganligi sababli RCC faqat iqlim koeffitsienti (71.16%) asosida 1822 ziyoratchi/kunga tushgan. Mavsumiy RCC 460966 ziyoratchi tashkil etib, bu ko'rsatkich obyektning diniy-ziyoratgoh xususiyati bilan birgalikda sayyoh oqimini ehtiyotkorlik bilan boshqarish zarurligini ko'rsatadi.

5-jadval.

Ikki obyektning yakuniy qiyosiy ko'rsatkichlari		
Ko'rsatkich	Chor Minor	Hazrati Imom
Foydalanish maydoni (m ²)	2 557	559.34
PCC (ziyoratchi/kun)	14 679	2 561
RCC (ziyoratchi/kun)	9 741	1 822
RCC/PCC nisbati (%)	66.4	71.2
Yillik RCC	3 555 465	665 030
Mavsumiy RCC	2 464 473	460 966

5-jadvalning qiyosiy tahlili ikki obyekt o'rtasida PCC bo'yicha 5.7 barobarlik farq mavjudligini ko'rsatadi. Bu farqning asosiy sababi foydalanish maydonlarining katta tafovutidir: Chor Minor (2 557 m²) Hazrati Imom ansamblidan (559.34 m²) 4.6 barobar katta maydonni qamrab oladi. Shu bilan birga, RCC/PCC nisbati bo'yicha ikkala obyekt (66.4% va 71.2%) Erdogan (2025) tomonidan xalqaro meros saytlari uchun belgilangan 40-70% me'yor doirasida joylashib, hozircha sig'im chegarasining buzilmaganligidan dalolat beradi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, ikki obyekt o'rtasida PCC bo'yicha 5.7 barobar farq mavjud bo'lib, bu bevosita foydalanish maydonidagi tafovutdan kelib chiqadi. Chor Minor ansambli keng hovli va ko'p funksional zonalarga ega bo'lsa, Hazrati Imom ansambli asosan ziyoratgoh xarakteriga ega, maydon jihatdan cheklangan obyektidir. RCC/PCC nisbati bo'yicha Hazrati Imom ansambli (71.2%) Chor Minor ansamblidan (66.4%) biroz yuqori ko'rsatkichni namoyon etdi. Buning asosiy sababi shundaki, Hazrati Imom ansamblida savdo yoki muzey zonalari mavjud emasligi uchun savdo tuzatishi nolga teng, ya'ni iqlimdan boshqa qo'shimcha RCC cheklovlari kuzatilmadi. Chor Minor ansamblida esa savdo rastasi, muzey ekspozitsiya va xizmat texnik zonasi (jami 110 m², umumiy maydonning 3.86%) haqiqiy sig'imni qo'shimcha ravishda pasaytirdi.

Xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilganda, Erdoganning Amasya meros obyektida RCC ning PCC ga nisbatini 40-60% atrofida me'yor sifatida belgilagan [11]. Ushbu tadqiqotda ikkala obyekt uchun ushbu nisbat 66-71% tashkil etdi. Bu ko'rsatkich xalqaro me'yor doirasida qoniqarli natija sifatida baholanadi. Petra obyektida Magabli va Al-Shorman aniqlagan sig'imdan oshib ketish holatidan farqli o'laroq [12], tadqiqot obyektlarimizda hozircha sig'im chegarasining buzilishi qayd etilmagan.

Biroq ikki muhim jihatni alohida ta'kidlash zarur. Birinchidan, Hazrati Imom ansambli

o‘zining diniy-ziyoratgoh xarakteri tufayli boshqaruvda o‘ziga xos qiyinchilik tug‘diradi. Jangra va Kaushik ta’kidlaganidek, diniy obyektlarda sig‘imdan oshib ketish holati ko‘pincha bayram va muqaddas kunlar atrofida ro‘y beradi [13]. Shu sababli ushbu obyekt uchun mavsumiy boshqaruv rejasini alohida ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Ikkinchidan, Chor Minor ansamblida savdo zonasining nisbatan kattaligi ziyoratchilarning erkin harakatlanishini cheklaydi. Butler TALC modelida ko‘rsatganidek, tijorat faoliyatining me’moriy meros ichida kengayishi manzil tanazzulining ilk belgilaridan biri hisoblanadi [15]. Amaliy jihatdan ushbu tadqiqot natijalari Buxoro shahar hokimligi va meros boshqaruvi organlari uchun aniq asos yaratadi. Chor Minor uchun kunlik 9741, Hazrati Imom uchun esa kunlik 1822 ziyoratchi soni ilmiy asoslangan boshqaruv limiti sifatida tavsiya etilishi mumkin.

Xulosa va takliflar. Ushbu tadqiqot doirasida Buxoro tarixiy markazidagi Chor Minor ansambli va Hazrati Imom qabri va ansambli obyektlarida Cifuentes uch bosqichli modeli asosida dala tadqiqotlari orqali fizik va haqiqiy turistik sig‘im o‘lchandi. Olingan natijalarga ko‘ra, Chor Minor ansambli uchun PCC kuniga 14679, RCC esa kuniga 9741 ziyoratchi tashkil etib, RCC/PCC nisbati 66.4% ni tashkil etdi. Hazrati Imom qabri va ansambli uchun ushbu ko‘rsatkichlar mos ravishda 2561 va 1822 ziyoratchi/kun, RCC/PCC nisbati esa 71.2% bo‘ldi. Ikkala obyekt bo‘yicha olingan nisbatlar xalqaro meros obyektlari uchun belgilangan me‘yor doirasida joylashib, hozircha sig‘im chegarasining buzilmaganligidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Chor Minor ansamblida savdo va xizmat zonalarining sig‘imni 3.86% ga kamaytirishi, Hazrati Imom ansamblida esa bayramlar davrida vaqtinchalik sig‘imdan oshib ketish xavfi mavjudligi aniqlandi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, ushbu soha rivojlantirishga doir quyidagi ilmiy takliflarni berishni maqsadga muvofiq deb topdik:

Birinchidan, Chor Minor ansambli uchun kunlik 9741, Hazrati Imom ansambli uchun kunlik 1822 ziyoratchi sonini rasmiy boshqaruv limiti sifatida belgilash va chipta sotish tizimiga joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Ikkinchidan, Chor Minor ansamblida savdo rastasi va xizmat texnik zonalarini obyekt ichidan tashqarisiga ko‘chirish orqali ziyoratchilar uchun foydalanish maydonini kengaytirish tavsiya etiladi.

Uchinchidan, Hazrati Imom ansamblida bayramlar va muqaddas kunlar davomida tashrif soatlarini tartibga soluvchi mavsumiy boshqaruv rejasini ishlab chiqish zarur.

To‘rtinchidan, keyingi tadqiqot bosqichida xodimlar soni, hojatxona va infratuzilma imkoniyatlarini hisobga olgan holda Samarali sig‘im (ECC) ni aniqlash orqali boshqaruv qarorlarini yanada aniqlashtirish lozim.

Beshinchidan, ushbu tadqiqotda qo‘llanilgan metodologiyani Buxoro tarixiy markazidagi qolgan meros obyektlariga ham tatbiq etish, barqaror turizm boshqaruvining yaxlit tizimini yaratishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. UN Tourism. International tourist arrivals up 4% in 2025 reflecting strong travel demand around the world [Elektron resurs]. - URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourist-arrivals-up-4-in-2025-reflecting-strong-travel-demand-around-the-world>
2. UN Tourism. International Tourism Recovers Pre-Pandemic Levels in 2024 [Elektron resurs] / UN Tourism. - URL: <https://www.untourism.int/news/international-tourism-recovers-pre-pandemic-levels-in-2024>
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. 2025 yilda O‘zbekistonga 11,7 million nafar turist kelgan [Elektron resurs]. - URL: <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66309-2025-jilda-zbekistonga-11-7-million-nafar-turist-kelgan-2>
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida : PF-21-son, 16.02.2026 // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi (Lex.uz) : <https://lex.uz/uz/docs/-8050769>
5. YUNESKO World Heritage Centre. Historic Centre of Bukhara [Elektron resurs]. - URL: <https://whc.YUNESKO.org/en/list/602/>
6. Khamidov O., Khayrullaeva N. Sustainable Tourism Development in the Bukhara Region: A Development Research Model at Heritage Resources / O. Khamidov, N. Khayrullaeva //

- Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education. - 2021. - Vol. 1, No. 1. - URL: <https://multijournals.org/index.php/excellencia-imje/article/download/1162/1158/2247>
7. Kilichov M., Olsavsky F., Baiburiev R., Khayrullaeva N., Dávid L.D. Optimizing Sustainable Tourism Routes through GIS to Enhance Tourist Length of Stay in Bukhara // Journal of Cultural Analysis and Social Change. - 2026. - Vol. 11, № 1. - P. 1771-1787. - DOI: 10.64753/jcasc.v11i1.4187.
 8. Srivastava N. Measurement of Carrying Capacity of Tourist Destinations: A Case Analysis / N. Srivastava // International Journal of Tourism and Travel. - 2017. - Vol. 10, No. 1. - P. 38-46.
 9. Cifuentes Arias M. Determinación de capacidad de carga turística en áreas protegidas / M. Cifuentes Arias. - Turrialba (Costa Rica) : CATIE, 1992. - 28 p.
 10. UNWTO. Indicators of Sustainable Development for Tourism Destinations - A Guidebook / UNWTO. - Madrid : UNWTO, 2004. - 516 p.
 11. Erdoğan A. Carrying Capacity Assessments for Sustainable Tourism in a Heritage Site / A. Erdoğan // Advances in Hospitality and Tourism Research (AHTR). - 2025. - Vol. 13, No. 3. - P. 237-274. - DOI: 10.30519/ahtr.1483060.
 12. Magablih K., Al-Shorman A. The Physical Carrying Capacity at the Cultural Heritage Site of Petra / K. Magablih, A. Al-Shorman // Tourism Analysis. - 2009. - Vol. 13, No. 5-6. - P. 511-515. - DOI: 10.3727/108354208788160414.
 13. Jangra R., Kaushik S.P. Assessment of Physical Carrying Capacity for Managing Sustainability at Religious Tourist Destinations / R. Jangra, S.P. Kaushik // International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage. - 2017. - Vol. 5, Iss. 1, Article 5. - URL: <https://arrow.tudublin.ie/ijrtp/vol5/iss1/5/>
 14. Boullon R. Framework Guidelines for Assessing Carrying Capacity / R. Boullon // FAO Corporate Document Repository. - 1985. - URL: <https://www.fao.org/docrep/X5626E/x5626e0e.htm>
 15. Butler R.W. The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources / R.W. Butler // Canadian Geographer. - 1980. - Vol. 24, No. 1. - P. 5-12.
 16. YUNESKO ; ICCROM ; ICOMOS ; IUCN. Guidance and Toolkit for Impact Assessments in a World Heritage Context / YUNESKO. - Paris : YUNESKO, 2022. - 148 p.
 17. Doxey G.V. A Causation Theory of Visitor-Resident Irritants: Methodology and Research Inferences / G.V. Doxey // Proceedings of the Travel Research Association 6th Annual Conference. - San Diego, 1975. - P. 195-198.
 18. Makhadmeh A., Al-Badarnah M., Rawashdeh A., Al-Shorman A. Evaluating the Carrying Capacity at the Archaeological Site of Jerash (Gerasa) Using Mathematical GIS Modeling / A. Makhadmeh [et al.] // Egyptian Journal of Remote Sensing and Space Sciences. - 2020. - Vol. 23, No. 2. - P. 159-165. - DOI: 10.1016/j.ejrs.2018.09.002.

М.Киличов Возможности туристической ёмкости объектов наследия в историческом центре Бухары	М.Kilichov Tourism carrying capacity potential at heritage sites in the historic centre of Bukhara
Аннотация. В данной статье исследованы возможности туристической ёмкости объектов исторического наследия на примере ансамблей Чор-Минор и Хазрати Имом в историческом центре Бухары. В ходе исследования на основе методологии Сифуэнтеса посредством полевых исследований измерены показатели физической и реальной туристической ёмкости. Проведён анализ климатических корректирующих коэффициентов. На основе результатов исследования разработаны научные предложения по устойчивому управлению объектами наследия исторического центра Бухары. Ключевые слова: туристическая ёмкость, физическая ёмкость, реальная ёмкость, управление объектами наследия, объект Всемирного наследия ЮНЕСКО, модель Сифуэнтеса, устойчивый туризм.	Abstract. This article investigates the tourism carrying capacity potential of heritage sites using the examples of Chor Minor and Hazrati Imom ensembles in the historic centre of Bukhara. Within the study, physical carrying capacity and real carrying capacity indicators were measured through field surveys based on the Cifuentes methodology. Climate correction coefficients were analysed. Based on the research findings, scientific recommendations for the sustainable management of heritage sites in the historic centre of Bukhara have been developed. Keywords: tourism carrying capacity, physical carrying capacity, real carrying capacity, heritage site management, UNESCO World Heritage, Cifuentes model, sustainable tourism.

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.